



INSTITUTIONAL DECLINE AND THE CRISIS OF SOCIAL CONSCIOUSNESS: WHERE ARE THE ROOTS OF THE DECLINE?

Mirzo Zokirov

PhD student

Tashkent State University of Economics

Tashkent, Uzbekistan

E-mail: zokirov0796@gmail.com

ABOUT ARTICLE

Key words: institutional decline, social consciousness, crisis of values, extractive institutions, philosophy of development.

Received: 13.05.25

Accepted: 15.05.25

Published: 17.05.25

Abstract: This article analyzes institutional decline and the crisis of social consciousness as the main causes of the decline of modern societies. Based on the ideas of extractive and inclusive institutions put forward by Daron Acemoglu and James Robinson, factors such as the crisis of trust between the state and society, the fragmentation of values, and civic passivity are studied from a philosophical perspective. The moral, cultural, and spiritual roots of the crisis of social consciousness are also revealed. According to the results of the study, institutional decline is directly related not only to political and economic, but also to socio-philosophical factors.

INSTITUTIONAL TANAZZUL VA IJTIMOYIY ONG INQIROZI: TANAZZULNING ILDIZLARI QAYERDA?

Mirzo Zokirov

tayanch doktorant (PhD)

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Toshkent, O'zbekiston

E-mail: zokirov0796@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: institutsional tanazzul, ijtimoiy ong, qadriyatlar inqirozi, ekstraktiv institutlar, taraqqiyot falsafasi.

Annotatsiya: Mazkur maqolada institutsional tanazzul va ijtimoiy ong inqirozi zamonaviy jamiyatlar tanazzulining asosiy sabablari sifatida tahlil qilinadi. Daron Acemoglu va Jeyms Robinson tomonidan ilgari surilgan ekstraktiv va inklyuziv

institutlar g'oyalari asosida, davlat va jamiyat o'rtasidagi ishonch inqirozi, qadriyatlar parokandaligi va fuqarolik passivligi kabi omillar falsafiy nuqtai nazardan o'rganiladi. Shuningdek, ijtimoiy ong inqirozining axloqiy, madaniy va ma'naviy ildizlari ochib beriladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, institutsional tanazzul nafaqat siyosiy va iqtisodiy, balki ijtimoiy-falsafiy omillar bilan bevosita bog'liqdir.

ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЙ УПАДОК И КРИЗИС ОБЩЕСТВЕННОГО СОЗНАНИЯ: ГДЕ КОРНИ УПАДКА?

Мирзо Закиров

базовый докторант (PhD)

Ташкентский государственный экономический университет

Ташкент, Узбекистан

E-mail: zokirov0796@gmail.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: институциональный упадок, общественное сознание, кризис ценностей, экстрактивные институты, философия развития.

Аннотация: В данной статье анализируется институциональный упадок и кризис общественного сознания как основные причины упадка современных обществ. На основе идей экстрактивных и инклюзивных институтов, выдвинутых Дароном Асемоглу и Джеймсом Робинсоном, с философской точки зрения изучаются такие факторы, как кризис доверия между государством и обществом, фрагментация ценностей и гражданская пассивность. Также раскрываются моральные, культурные и духовные корни кризиса общественного сознания. Согласно результатам исследования, институциональный упадок напрямую связан не только с политическими и экономическими, но и с социально-философскими факторами.

KIRISH

XXI asr globallashuvi, axborot tezkorligi va siyosiy o'zgarishlar davrida ko'plab davlatlar, jumladan taraqqiyot sari intilayotgan mamlakatlar, turli shakllardagi tanazzul alomatlarini boshdan kechirmoqda. Ushbu tanazzul nafaqat iqtisodiy yoki siyosiy omillar bilan, balki chuqur ijtimoiy va falsafiy ildizlarga ega bo'lgan muammolar bilan izohlanadi. Ayniqsa, institutsional tanazzul va ijtimoiy ong inqirozi bir-birini to'ldiruvchi murakkab ijtimoiy jarayonlardir. "Institutsional tanazzul – bu jamiyatni tartibga soluvchi asosiy tuzilmalar, ya'ni qonunchilik, siyosiy tizim, ta'lim, sog'liqni saqlash va fuqarolik institutlarining o'z vazifasini bajara olmay

qolishi yoki faqat hukmdor elita manfaatlariga xizmat qilishi holatidir. Bunday holatda ekstraktiv institutlar ustun bo‘lib, ular jamiyatdagi resurslarni tor doira manfaatlariga yo‘naltiradi va barqaror ijtimoiy taraqqiyotga to‘siq bo‘ladi”.

Boshqa tomondan, ijtimoiy ong inqirozi – bu fuqarolarning ijtimoiy voqelikka bo‘lgan axloqiy, ma‘naviy va ongli munosabatining zaiflashuvi, befarqlik, umidsizlik va ijtimoiy passivlikning kuchayishidir. Bu holatda milliy qadriyatlar qadrlanmaydi, jamiyatni harakatga keltiruvchi ruhiy birlik yo‘qoladi, davlatga nisbatan ishonch zaiflashadi.

Mazkur maqola aynan shu ikki o‘zaro bog‘liq tushuncha – institutsional tanazzul va ijtimoiy ong inqirozining ijtimoiy-falsafiy asoslarini ochib berish, ularning zamonaviy jamiyatlarda qanday namoyon bo‘lishini tahlil qilish hamda bu muammolarning ildiz sabablarini aniqlashga qaratilgan. Shuningdek, bu inqirozlardan chiqish uchun ijtimoiy ong va institutlar o‘rtasida sog‘lom uzviylikni tiklash zarurligi ta’kidlanadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy jamiyatlardagi tanazzul jarayoni nafaqat tashqi (siyosiy-iqtisodiy), balki chuqur ichki (ongiy, axloqiy va ma‘naviy) inqiroz bilan bog‘liq. Bu holat ijtimoiy-falsafiy yondashuv orqali quyidagi asosiy talqinlar bilan izohlanadi:

Institutsional tanazzul – tashqi ko‘rinish, lekin ichki inqiroz natijasiko‘p hollarda institutsional tanazzul “yomon boshqaruv”, “korrupsiya” yoki “resurs yetishmovchiligi” kabi tashqi belgilar orqali ifodalanadi. Biroq bu muammo aslida jamiyatning axloqiy va madaniy asoslaridagi yemirilishning oqibatidir. Agar institutlar ijtimoiy ongga, ya’ni fuqarolarning qadriyatlari va ishonch tizimiga tayanmasa, ularning mustahkamligi faqat tashqi shaklda qoladi. Karl Popperning “ochiq jamiyat” nazariyasiga ko‘ra, jamiyat erkin va ishonchga asoslangan bo‘lmasa, har qanday institutlar avtoritar tuzumga aylanadi.

Ijtimoiy ong inqirozi — tanazzulning markaziy ildizi

Ijtimoiy ong — bu jamiyatning o‘zini anglash shakli, voqealarga munosabati va harakatga undovchi ruhiy kuchdir. Agar bu ong befarqlik, individualizm va umidsizlik bilan to‘lsa, jamiyat ichidan yemiriladi. Shuningdek, ijtimoiy ong inqirozi jamiyatda kollektiv maqsad yo‘qligi, umumiy qadriyatlar buzilishi va jamiyat a‘zolari o‘rtasidagi ruhiy aloqalarning uzilishi bilan bog‘liq. Durkgeym ijtimoiy birlik yo‘qolganda “anomiya” holati yuzaga kelishini ta’kidlaydi — bu beqarorlik va ma’nosizlik muhitidir.

Taraqqiyot uchun nafaqat institutlar, balki qadriyatlar ham inklyuziv bo‘lishi kerak. Acemoglu va Robinson inklyuziv institutlarning iqtisodiy taraqqiyotdagi rolini alohida ta’kidlaydi. Lekin bu institutlar o‘z-o‘zidan barpo bo‘lmaydi — ularning asosi inklyuziv qadriyatlar, jamiyatdagi ishonch, adolat, tenglik va axloqiy birdamlikdir. Agar ongiy va madaniy

muhit inklyuziv bo'lmasa, institutlar sun'iy va qog'ozdagi shaklda qoladi. Shuning uchun, chinakam rivojlanish uchun jamiyatda ma'naviy inklyuzivlik zarur.

Mustamlakachilik merosi va tarixiy travma ijtimoiy ongda davom etmoqda

Ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlar, jumladan, sobiq mustamlakachilik tajribasiga ega davlatlarda institutsional tanazzulga duch kelishining sababi – ularning tarixiy rivojlanishining uzilganligidir. Fanon va Saidning postkolonial nazariyalariga ko'ra, bu jamiyatlarda o'zligini tan olish, mustaqil tafakkur va tarixiy o'zini anglash jarayonlari hali yakunlanmagan. Bu esa ijtimoiy ongda noaniqlik, sun'iy identitetlar va qaramlik kompleksini yuzaga keltiradi. Yechim – ijtimoiy ongni uyg'otish orqali institutlarni qayta qurish.

Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, jamiyatlarni tiklash faqat tashqi islohotlar bilan emas, balki ongiy uyg'onish, ya'ni axloqiy tarbiya, ma'naviy ruhiyat, jamoaviy ong va ijtimoiy mas'uliyatni oshirish orqali amalga oshadi. Bu – falsafiy yondashuvga asoslangan chuqur strategik islohotlar tizimini talab qiladi. Masalan, Skandinaviya davlatlarining barqaror rivojlanishi faqat institutlar emas, balki yuqori ijtimoiy ishonch va axloqiy birdamlik asosida shakllangan jamiyat tufayli mumkin bo'lgan.

Ushbu tadqiqot davomida institutsional tanazzul va ijtimoiy ong inqirozining zamonaviy jamiyatdagi aks etish shakllari, ularning o'zaro uzviy bog'liqligi va chuqur ildizlari ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan quyidagi asosiy natijalarda namoyon bo'ldi: Ekstraktiv institutlarning ustunligi tanazzulning strukturaviy asosi hisoblanadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ko'plab mamlakatlarda mavjud bo'lgan institutlar - siyosiy, iqtisodiy, huquqiy - inklyuziv emas, balki ekstraktiv tusga ega bo'lib, ular ijtimoiy guruhlar o'rtasida teng imkoniyatlar yaratish o'rniga resurslar va vakolatlarni cheklangan elita doirasida markazlashtiradi. Bu holat ijtimoiy harakatchanlikni to'xtatib qo'yadi va ijtimoiy qatlamlar o'rtasida keskin tafovutlarga olib keladi. Ijtimoiy ongda befarqlik va passivlik kuchaymoqda. Fuqarolarning o'z davlatiga nisbatan ishonchi pasaygan. Bu esa ularning siyosiy va fuqarolik faolligiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Ijtimoiy ongda qaror topgan "hech nima o'zgarmaydi" degan e'tiqod institutsional tanazzulni yanada kuchaytiradi. Passivlik va umidsizlik — bu ijtimoiy ong inqirozining eng muhim belgilaridan biridir. Tanazzulning ildiz sabablari ma'naviy va axloqiy qadriyatlardagi uzilish bilan bog'liq.

Ijtimoiy inqiroz va institutsional tanazzul ko'p hollarda shunchaki siyosiy yoki iqtisodiy omillar bilan emas, balki axloqiy qadriyatlar, diniy ong va jamiyatni birlashtiruvchi ruhiy tamoyillarning yemirilishi bilan bog'liq. Masalan, adolat, halollik, jamoaviylik kabi qadriyatlar soxta pragmatizm va shaxsiy manfaat bilan almashtirilgan. Madaniy va tarixiy merosga bo'lgan befarqlik ijtimoiy ongni zaiflashtiradi. Jamiyatlar o'z tarixiy ildizlari va qadriyatlarini yo'qotganida yoki ularni rad etganida, ularning ijtimoiy ongida bo'shliq yuzaga keladi. Bu bo'shliqda sun'iy

mafkuralar, manipulyativ diskurslar va radikal g'oyalar shakllanadi. Aynan shu sababli, mustamlakachilikdan keyingi jamiyatlarda tarixiy ongning to'liq tiklanmagani tanazzulni chuqurlashtirmoqda. Taraqqiyot uchun faqat institutsional islohotlar emas, balki ongiy islohotlar ham muhim.

Natijalarga ko'ra, faqat qonunlar va tashkiliy tizimlarni o'zgartirish yetarli emas. Agar ijtimoiy ongda javobgarlik, halollik, fuqarolik birdamligi va axloqiy qarashlar rivojlanmasa, har qanday institutsional islohotlar samarasiz bo'ladi. Bu fikr D. Nortning "institutsional o'zgarish faqat tashqi emas, ichki – ongiy darajada ham yuz berishi kerak" degan qarashlari bilan hamohangdir.

XULOSA

Tadqiqot natijalari va ularning ijtimoiy-falsafiy talqini shuni ko'rsatadiki, institutsional tanazzul va ijtimoiy ong inqirozi bugungi ko'plab jamiyatlarda tanazzulning asosiy va o'zaro bog'liq omillari sifatida namoyon bo'lmoqda. Ular nafaqat jamiyatning tashqi siyosiy-iqtisodiy tizimlariga, balki uning ichki axloqiy-ruhiy holatiga ham bevosita ta'sir qiladi.

Asosiy xulosalar:

Tanazzulning ildizi institutlarning ekstraktivlashuvi bilan emas, balki ijtimoiy ongdagi qadriyatlar yemirilishi bilan bog'liq. Ya'ni, agar jamiyatda axloqiy, adolatli va ma'naviy tamoyillar tanazzulga uchrasa, har qanday institut o'z mohiyatini yo'qotadi.

Ijtimoiy ong inqirozi — bu befarqlik, fuqarolik passivligi, umidsizlik va axloqiy dezoriyentatsiya bilan tavsiflanadi. Bunday holat jamiyatni harakatga keltiruvchi ichki ruhiy kuchlarni zaiflashtiradi. Mustamlakachilikdan qolgan tarixiy meros va madaniy uzilishlar jamiyatlarda o'zini anglash va mustaqil institutlar qurish imkoniyatini cheklagan. Bu holat ijtimoiy ongni parokanda holatga keltirgan. Rivojlanish uchun nafaqat tashqi institutsional islohotlar, balki ongiy uyg'onish zarur. Bu o'z ichiga qadriyatlarni tiklash, jamoaviylikni rivojlantirish va ijtimoiy ishonchni tiklash kabi jarayonlarni oladi.

Inklyuziv taraqqiyot modelining muvaffaqiyati institutlar va ijtimoiy ong o'rtasidagi uyg'unlikka bog'liq. Ulardan birortasi zaif bo'lsa, taraqqiyot muqarrar tanazzulga aylanishi mumkin.

Tavsiyalar:

1. Davlat siyosatida faqat strukturaviy islohotlar emas, ijtimoiy ongni shakllantirishga qaratilgan gumanitar dasturlar ham ustuvor bo'lishi lozim.
2. Ta'lim tizimi faqat bilim emas, balki ijtimoiy mas'uliyat, axloqiy qadriyatlar va fuqarolik ongini rivojlantirishga xizmat qilishi kerak.
3. Madaniyat va tarixni anglashga asoslangan ongiy tiklanish jamiyatda identitet va ma'naviy barqarorlikni tiklaydi.

4. Jamiyatda axloqiy yetakchilik va jamoaviy ong shakllanishi uchun fuqarolik jamiyati institutlarini faol qo‘llab-quvvatlash zarur.

REFERENCE

1. Acemoglu D., Robinson J.A. *Why nations fail: the origins of power, prosperity, and poverty*. – New York: Crown Publishers, 2012. – 529 p.
2. Норт Д. Институты, институциональные изменения и функционирование экономики. – М.: Фонд экономической литературы, 1997. – 192 с.
3. Дюркгейм Э. О разделении общественного труда. – М.: Канон+, 1996. – 480 с.
4. Поппер К. Открытое общество и его враги. В 2 т. – М.: Вакуум, 1992. – Т. 1. – 381 с.
5. Фанон Ф. Проклятые земли. – М.: Прогресс, 2005. – 352 с.
6. Саид Э. Ориентализм. – М.: Канон+, 2006. – 624 с.
7. Mannheim K. *Ideology and Utopia*. – New York: Harcourt, 1954. – 314 p.